

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA - MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI**

“MASHINASOZLIK” fakulteti

**“TO'QIMACHILIK SANOATI MAHSULOTLARI TEXNOLOGIYASI ”
kafedrası**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI BO'YICHA

T U S H I N T I R I S H X A T I

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi: **Quvvati 160 ta to'quv dastgohiga ega bo'gan astarlik to'qima ishlab chiqaruvchi to'quvchilik korxonasini loyixalash.**

Bitiruvchi “TSMT” yo'nalishi

Siddiqov Nodirbek

4-kurs 1- guruh talabasi:

Nuriddinovich

Fakultet dekani:

dots. T.A.Almatayev

Kafedra mudiri:

t.f.n. M.N.Umarova

Bitiruv malakaviy

ishi raxbari:

ass. U.Mo'minov

t.f.n. M.N.Umarova

Maslaxatchilar:

dots. G.Zufarova

kat.o'q. Sh. Sulaymonov

Andijon-2012

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“Mashinasozlik” fakul’teti

“To’qimachilik sanoat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrası

BITIRUV MALAKAVIY ISHINI BAJARISH BO’YICHA

TOPSHIRIQ

Bitiruvchi: Siddiqov Nodirbek Nuriddinovich

1. Bitiruv malaka ishining mavzusi: Quvvati 160 ta to’quv dastgohiga ega bo’gan astarlik to’qima ishlab chiqaruvchi to’quvchilik korxonasini loyixalash.

Institut bo’yicha 2011 yil 07–dekabrdagi №293-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan.

2. Bitiruv ishining bajarishga doir boshlangich ma’lumotlar: O’zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, Vazirlar maxkamasi qarorlari, ilmiy texnik xamda texnologik adabiyotlar va internet ma’lumotlari, to’qima xaqida umumiy ma’lumotlar.

3. Tushuntirish xatida keltirilgan ma’lumotlar.

1) Kirish.

2) Texnologik qismi: Matoning texnik hisobi ko’rsatkichi. To’qimaning to’liq taxtlash dasturi. To’qimani ishlab chiqarish uchun texnologik jarayonlarni tanlash va asoslash. Gazlamani ishlab chiqarish uchun texnologik jarayonlar ketma-ketligi. O’ramalar va chiqindilar hisobi keng yoritildi.

3) Iqtisodiy qismi: Loyihalanayotgan to’quvchilik korxonaning uskunalarning islash normasi va unumdorligi hisobi, ishlab chiqarish rejasi, uskunalar muvofiqligini hisobi, xom ashyo balansi xisobi, ishlab chiqarilgan maxsulot xarajatlari xisobi, maxsulot sotish rejasi va korxonaning texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlari taxlili hisoblandi

4) Mexnat muxofazasi qismi. To’quv dastgohni texnik soz va xavfsiz ishlashi uchun ko’riladigan tadbirlar.

5) Xulosa va takliflar. Bitiruv malakaviy ish bo’yicha loyihada erishilgan yutuqlar bo’yicha amaliy xulosalar va takliflar yoritilgan.

6) Foydalanilagan adabiyotlar ro’yxati. Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun zarur bo’lgan adabiyotlar keltirilgan.

4. Bitiruv malakaviy ishining chizmalar ro'yxati:

- 1) Chizma. To'quv g'altagi.
- 2) Jadval. Tanda galtagi.
- 3) Jadval. Texnologik jarayonlar ketma ketligi.

5.Bitiruv malakaviy ishi buyicha maslaxatchi (lar)

№	Bitiruv malakaviy ishning qismlari	Boshlanish muddati	Tugallanish muddati	Imzo	Maslaxatchi o'qituvchi F.I.Sh.
1.	Kirish	06.02.2012	05.03.2012		U.M.Mo'minov
2.	Texnologik qismi	19.03.2012	02.04.2012		U.M.Mo'minov
3.	Iqtisodiy qismi	03.04.2012	09.04.2012		dots. G.Zufarova
4.	Mexnat muhofazasi	10.04.2012	23.04.2012		Sh.A.Sulaymonov
5.	Xulosa va takliflar	24.04.2012	14.05.2012		U.M.Mo'minov
6.	Adabiyotlar ro'yxati	15.05.2012	19.05.2012		U.M.Mo'minov
7.	Internet yangiliklari	21.05.2012	26.05.2012		U.M.Mo'minov
8.	1.Chizma	19.03.2012	02.04.2012		U.M.Mo'minov
9.	2.Jadval	20.03.2012	21.03.2012		U.M.Mo'minov
10.	3.Jadval	03.04.2012	09.04.2012		M.N.Umarova

6. Topshiriq berilgan sana: 07. 12. 2011 yil.

7. Tugallangan bitiruv malakaviy ishini topshirish sanasi: 27.06.2012 yil.

Bitiruv ishi rahbari: U.M.Mo'minov

(imzo)

Topshirikni bajarishga oldim: N.N.Siddiqov

(imzo)

Kafedra mudiri: t.f.n. M.N.Umarova

(imzo)

MUNDARIJA

	KIRISH	5
1 BOB.	TEXNOLOGIK QISMI.....	8
1.1.	Astarlik to'qimaning tavsifi va to'liq taxtlash rasmi	9
1.2.	To'qimaning bog'lanish koeffitsienti.....	10
1.3.	To'qimaning taxtlash hisobi.....	11
1.4.	Xom to'qima iplarining og'irligi hisobi.....	14
1.5.	To'qimani ishlab chiqarish uchun texnologik jarayonlarni tanlash va asoslash.....	16
1.6.	Texnologik jarayonlar uchun uskunalarni tanlash va asoslash.....	18
1.7.	O'ramalar hisobi.....	25
1.8.	Chiqindilar hisobi.....	30
2 BOB.	IQTISODIY QISMI.....	34
2.1.	Uskunalarining islashini normallash va unumdorligini hisoblash...	34
2.2.	Ishlab chiqarish rejasi.....	37
2.3.	Uskunalar muvofiqligini hisoblash. Har bir jarayonda chiqadigan chiqindi va mahsulot miqdorini bir-biriga bog'liq holda hisoblash.....	41
2.4.	Xom ashyo balansi xisobi.....	48
2.5.	Ishlab chiqarilgan maxsulot xarajatlari.....	49
2.6.	Maxsulot sotish rejasi.....	50
2.7.	Dastgohlar sotib olish uchun xarajatlar.....	51
2.8.	Korxonaning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari taxlili.....	52
3 BOB.	MEXNAT MUXOFAZASI QISMI.....	53
3.1.	To'quv dastgohni texnik soz va xavfsiz ishlashi uchun ko'riladigan tadbirlar.....	53
	UMUMIY XULOSALAR.....	58
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	59
	INTERNET YANGILIKLARI.....	

KIRISH

Yurtboshimiz Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 21 yanvardagi “Respublika iqtisodiyotining 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo’ljallangan eng muhim ustuvor vazifalari” masalasiga bag’ishlangan majlisida qilgan ma’ruzalarida “To’qimachilik sanoatida eksportbop raqobatdosh mahsulotlar tayyorlashga yo’naltirilgan, yakuniy ishlab chiqarish shakliga ega bo’lgan yangi, zamonaviy to’qimachilik komplekslarini rivojlantirish” vazifalarini belgilab berdi [1].

O’zbekiston Respublikasida to’qimachilik sanoatini rivojlanish uchun katta miqdordagi tabiiy xom ashyo resurslari mavjud. Ushbu resurslardan tayyor mahsulot ishlab chiqarish, avvalo ichki bozorimizni to’ldirib, so’ngra sifatli va raqobatbardosh buyumlar bilan jahon bozoriga chiqish respublikamiz iqtisodiyotining etakchi yo’nalishlaridan biridir. Shu bois mamlakatimizda yengil sanoat tizimini takomillashtirish va uni hozirgi zamon talablariga moslashtirish, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan jahon andozalari darajasidagi tizimni yaratish umumdavlat siyosatini muhim vazifasidan biri hisoblanmoqda.

Respublikamizda agar xom ashyo va materiallarni qayta ishlovchi kichik va o’rta korxonalar faoliyati rivojlantirilsa, bu birinchidan, xalqimizni mahsulotga bo’lgan talabini qoniqtiradi, ikkinchidan xom ashyo eksportini kamaytirib, balki ularni tayyor mahsulot importi va valyutani tashqi davlatlarga oqib chiqib ketishi kamayadi. Uchinchidan xom ashyo va materiallarni qayta ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan korxonalar boshqa tarmoqlardagi kichik va o’rta korxonalarga nisbatan ko’proq ishchi kuchlarini talab qiladi. Bu esa mavjud ishsizlik masalalarini hal etishga yordam beradi.

To’qimachilik sanoatni boshqarishni takomillashtirish va ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishi lozimdir. Buning uchun quydagilarga etibor qaratish kerak.

1. Ichki va tashqi bozorni marketing tadqiqotlarini amalga oshirish, yengil sanoat mahsulotlariga bo’lgan extiyojning o’sishini o’rganish va bashorat qilish;

2. Respublika iste'mol bozori aholi o'rtasida haridorgir bo'lgan yuqori sifatli yengil sanoat mahsulotlari bilan to'ldirilishini taminlash;

3. Tarmoqning eksport solohiyatini mustahkamlash, kichik korhonalardan tomonidan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilishini qulaylashtirish hamda ularni jahon bozoriga yo'naltirish;

4. Paxta tolasidan, boshqa mahalliy xom ashyo va materiallar manbalaridan foydalanish samaradorligini oshirish;

5. Tarmoqda yangi texnika va investisiya siyosatini o'kazish, yengil sanoat korhonalari respublikaning aholi zich yashaydigan hududlarida joylashtirishni tashkil etish;

6. Bozor isloxotlarini samarali amalga oshirish uchun mutahassis kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish kabi asosiy vazifa va yo'nalishlarni belgilab berdi.

Ishlab chiqarish tizimi ichki va tashqi bozor talabini uzuliksiz qondirishga moslashgan bo'lishi kerak, bunga iqtisodiy tizim strategik yo'nalishlarini rasional tanlash orqali erishiladi. Ichki va tashqi bozor talabini barqaror qondirish uchun ko'pgina omillarni xisobga olish zarur. Bu omillar (tovar hususiyati, ishlab chiqarish xarajatlari, tovar narhi, tovarga talab, sotish hajmi, daromad va boshqalar) ta'sirini axborot texnologiyalari va tizimli matematik modellarni qo'llash orqali aniqlash yuqori samara beradi.

Yengil sanoat qishloq xo'jaligi, sanoat, transport va ijtimoiy sohalaridan tarkib topgan murakkab dinamik tizimdir. Yengil sanoat tarmoqlari rivojlanish mutanosibligi o'sish darajasi va ishlab chiqarish samaradorligi, asosan, boshqarish darajasining sifatiga bog'liq. Shuning uchun tizimli modellashtirish va kompyuter texnologiyasi asosida yengil sanoat tarmoqlarini boshqarishni optimallashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Shu sababli men ushbu bitiruv malakaviy ishim "Quvvati 160 ta to'quv dastgohiga ega bo'gan astarlik to'qima ishlab chiqaruvchi to'quvchilik korxonasini loyixalash" mavzusini kompyuter dasturlaridan keng foydalangan holda yozdim. Texnologik jarayonlarni loyihalashda men zamonaviy mashina va

dastgohlardan foydalangan holda tuzdim. Ushbu dastgoh va mashinalarni tanlashimga sabab shundaki, bu dastgohlar hozirgi jahon inovatsiyalariga asoslangan holda yaratilganligi bilan bir qatorda ekspluatatsion va iqtisodiy talablarga to'liq javob berib, mahsulotlarni sifat darajasini dunyo standartlariga mos ravishda ishlab chiqarish imkonini beradi.

Bakalavr darajasini olish uchun yozilgan mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 ta bob, umumiy xulosa, internet yangiliklari va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida "Texnologik" qismi o'rganilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobida iqtisodiy ko'rsatkichlar qismi o'rganilib tahlil qilingan.

Bitiruv malakaviy ishining uchinchi bobida "Mexnatni muxofaza qilish" qismi to'g'risida so'z yuritilgan va uning imkoniyatlari o'rganilgan.

Xulosa qismida bitiruv malakaviy ishi yuzasidan taklif va mulohazalar berilgan.

1-BOB. TEXNOLOGIK QISMI.

1-jadval.

Matoning texnik hisobi ko'rsatkichi.

To'qima nomi	Xom toqima eni, sm	Iplarning chiziqli zichligi, teks			Iplar soni		10 sm to'g'ri keladigan iplar soni		Iplarning qisqarish, %		Tig' raqami			Orilish	100 metr to'qima og'irligi chiqindi bilan birga	
															Tanda	Arqoq
		Milk	Arqoq T _A	Tanda T _T	Umumiy	Milkda	Tanda bo'yich P _T	Arqoq bo'yicha P _A	Tanda bo'yich a _T	Arqoq bo'yicha a _A	raqam	fondagi	milkdagi			
astarlik gazlama	96	20	20	20	2429	70	25.0	40.0	3.6	7.3	80	3	2	satin	5.2	8.6

1.1. Astarlik to'qimaning tavsifi va to'liq taxtlash rasmi.


Astarlik to'qima tavsifi.

Astarlik to'qima asosan satin o'rilishi asosida ishlab chiqariladi. Satin o'rilishi yaltiroq va gazlamaning o'ngida arqoq ipi chiqib turadi, shuning uchun arqoq bo'yicha nisbiy zichlik tanda bo'yicha nisbiy zichligidan ancha katta. Yupqa va yarim yupqa satinlar pardozlanganda merserizatsyalanadi. O'ngi silliq, merserizatsyalanganligi tufayli satin ishqalanishiga yaxshi chidaydi va ko'p hollarda astarlikka ishlatiladi.

To'qimaning to'liq taxtlash rasmi.

To'quv dastgohini taxtlash va unda berilgan o'rilish asosida to'qima ishlab chiqarish uchun avval uni taxtlash rasmi tuziladi.

Taxtlash rasmi to'qimaning ishlab chiqarish texnologik shart-sharoitlarining chizma tasviri bo'lib, undagi elementlar ma'lum tartibda joylashgan bo'ladi [2]. 1-rasmda satin o'rilishini to'liq taxtlash dasturi tuzilgan.



1-rasm. To'qimaning to'liq taxtlash dasturi.

1-o'rilish tasviri; 2-tanda iplarini tig'dan o'tkazish tartibi; 3-tanda iplarini shodalardan o'tkazish tartibi; 4-shodalarni ko'tarilish tartibi.

1.2. To'qimaning bog'lanish koeffitsienti

To'qimaning bog'lanish koeffitsienti quydagi formula yordamida aniqlanadi:

$$C = \frac{P_{\text{man}} \cdot P_{\text{ap}} \cdot T}{F \cdot 1000} = \frac{25,0 \cdot 40,0 \cdot 20}{5 \cdot 1000} = 4$$

Bunda: P_{tan} –to'qimaning tanda bo'yicha zichligi, ip/sm; P_{ar} -to'qimaning arqoq bo'yicha zichligi, ip/sm; F -o'rilishning koeffitsienti; $T_{\text{o'r}}$ -tanda va arqoq iplarining chiziqli zichligining yarim yig'indisi o'rtacha qiymati:

$$T_{\text{yp}} = \frac{T_{\text{man}} + T_{\text{ap}}}{2} = \frac{20 + 20}{2} = 20$$

O'rilishning o'rtacha koeffitsienti quydagicha hisoblanadi:

$$F = \frac{2R_t \cdot R_a}{t_t + t_a} = \frac{2 \cdot 5 \cdot 5}{5 \cdot 5} = 5$$

Bunda: R_t , R_a -tanda va arqoq iplari bo'yicha o'rilish rapporti; t_t -rappot oralig'ida tanda ipi arqoq ipining necha marta ustidan o'tishlari soni; t_a -rappotr oralig'ida arqoq ipi tanda ipining necha marta ustidan o'tishlari soni.

To'qimaning tolali material bilan to'ldirilganlik koeffitsientini topamiz

$$P_t = 25,0 \text{ ip/sm}$$

$$P_a = 40,0 \text{ ip/sm}$$

$$T_t = 20 \text{ teks}$$

$$T_a = 20 \text{ teks}$$

$$K = 1,25$$

1. Tanda va arqoq iplarini diametrini aniqlaymiz:

$$d_t = c \cdot 1,25\sqrt{20} = 0,0316 \cdot 1,25\sqrt{20} = 0,176 \text{ mm}$$

$$d_a = c \cdot 1,25\sqrt{20} = 0,0316 \cdot 1,25\sqrt{20} = 0,176 \text{ mm}$$

2. Tanda va arqoq iplari bilan to'ldirilganlik koeffitsientini aniqlaymiz.

To'qimani tanda iplar bilan to'ldirilish koeffitsienti:

$$K_{\text{TT}} = \frac{25 \cdot (0,176 \cdot 5 + 0,176 \cdot 2)}{5 \cdot 10} = 0,61$$

To'qimani arqoq iplar bilan to'ldirilish koeffitsienti:

$$K_{aT} = \frac{40 \cdot (0,176 \cdot 5 + 0,176 \cdot 2)}{5 \cdot 10} = 0,98$$

To'qimaning tanda iplar bilan to'ldirilganligini quydagicha aniqlaymiz:

3. To'qimaning to'ldirilganlik koeffitsientini aniqlaymiz:

$$K_T = 0,61 \cdot 0,98 = 0,59$$

Bog'lanish koeffitsienti va to'qimaning tolali material bilan to'ldirilganlik koeffitsienti miqdoriga ko'ra to'quv dastgohining turini tanlash kerak.

1.3. To'qimaning taxtlash hisobi

To'quv dastgohining ishchi enini aniqlash.

Xom to'qima enini tanlashda davlat standarti bo'yicha, dastgohning ish enidan to'la foydalanishni nazarda tutish shart.

To'quv dastgohining ish eni quydagi tartibda aniqlanadi:

1. Xom to'qimani pardoqlash jarayonidagi eni bo'yicha kirishishi hisoblanadi.

$$U_a = \frac{B_x^1 - B_T^1}{B_x^1} \cdot 100 = \frac{96 - 95}{96} \cdot 100 = 1,04 \quad \%$$

Bunda: B_x^1 - xom to'qimaning eni, sm; B_T^1 - tayyor to'qima eni, sm.

2. Davlat standarti bo'yicha tayyor to'qimaning eni B_T tanlab olinadi.

3. Pardoqlashdan keyingi standart tayyor to'qimaning eniga mos keluvchi xom to'qimaning eni xisoblanadi:

$$B_x = \frac{B_T}{1 - \frac{U_a}{100}} = \frac{95}{1 - \frac{1,04}{100}} = 96.9 \quad \text{sm}$$

4. Tig' bo'yicha tanda iplarini taxtlash enini aniqlash:

$$B_{TT} = \frac{B_x}{1 - \frac{a_a}{100}} = \frac{96.9}{1 - \frac{7.3}{100}} = 104.5 \quad \text{sm}$$

Bunda: a_a - arqoq ipining to'quvchilik jarayonidagi qisqarishi; B_{TT} - to'quv dastgohining tig' bo'yicha taxtlash eni; to'quv dastgohining ishchi eni B_d dan kichik yoki unga teng bo'lishi kerak, ya'ni:

$$B_{TT} \leq B_d = 104.5 \times 2 < 108.5 \times 2$$

Tanda iplarining sonini aniqlash.

Fon va milkning enini aniqlash.

1. Fonning eni:

$$B_f = B_x - B_m = 96.9 - 2.78 = 94.12 \text{ sm}$$

2. Milkning eni:

$$B_m = B_m \left(1 - \frac{a_a}{100}\right) = 3 \left(1 - \frac{7.3}{100}\right) = 2.78 \text{ sm}$$

Tanda iplar sonini aniqlash:

1. Fondagi iplar soni $n_f = B_f \cdot P_f = 94.12 \cdot 25.0 = 2353$

2. Milkdagi iplar soni $n_m = B_m \cdot P_m = 2.78 \cdot 25.0 = 69.5 \approx 70$

3. Umumiy iplar soni $n_T = n_f + n_m = 2353 + 70 = 2429$

Tig' hisobi.

1. Tig'ning raqamini aniqlash:

$$N_T = \frac{P_f \left(1 - \frac{a_a}{100}\right)}{Z_f} = \frac{250 \left(1 - \frac{7.3}{100}\right)}{3} = 77.25 \quad \text{tish/dm}$$

Bunda: Z_f -tig'ning bitta tishiga teriladigan to'qima o'rtasidagi iplar soni. Odatda, ip-gazlama to'quvchilikda ishlatiladigan tig'larning raqami besh soniga karrali bo'linadigan son bilan ifodalanadi, 80, 95, 105, 125 va hokazo.

2. Tig'dagi tishlar sonini aniqlash:

$$X = \frac{n_T}{Z_f} + \frac{n_m}{Z_m} = \frac{2429}{3} + \frac{70}{2} = 845 \quad \text{tish}$$

Shodalar hisobi

Shodalar soni to'qimadagi iplarning o'rilish turiga, tanda iplarining zichligiga, shodaga ip terish usuliga qarab tanlanadi.

1. Shodaning o'rtasidagi iplar uchun gulalar sonini aniqlash:

$$G_f = \frac{n_f}{n_{fsh}} = \frac{2353}{5} = 470.6 \approx 471 \quad \text{gula}$$

Bunda: n_{fsh} -fon iplari teriladigan shodalar soni.

2. Shodadagi milk iplari uchun gulalar sonini aniqlash:

$$G_m = \frac{n_m}{n_{msh} \cdot k} = \frac{70}{2 \cdot 1} = 35 \quad \text{gula}$$

Bunda: K-bitta gulaga teriladigan iplarning soni.

3. Shodadagi umumiy gulalar sonini aniqlash:

$$G = G_f \cdot n_f + G_m \cdot n_m + G_q = 471 \cdot 5 + 35 \cdot 2 + 10 \equiv 2435$$

Bunda: G_q -qo'shimcha gulalar soni, har bir shoda uchun $2 \div 4$ ta gula qabul qilinadi.

4. Shoda enini aniqlash:

$$B_{sh} = B_{TT} + 1 - 2 = 104.5 + 1.5 = 106 \quad \text{sm},$$

Bunda: B_{TT} - tig' bo'yicha tanda iplarini taxtlash eni, sm.

5. SHodadagi gulalar zichligini aniqlash:

$$P_g = \frac{G_f}{B_{sh}} \leq [P_g] = \frac{471}{106} = 4.4 < [8 \div 10]$$

Bunda: $[P_g]$ -ruxsat etilgan zichlik.

Ruxsat etilgan zichlik ma'lumotnomalardan ipning yo'g'onligiga qarab tanlanadi.

Lamel asbobi hisobi.

Lamellar soni tanda iplarning umumiy soniga teng:

$$n_T = n_L = 2429 = 2429$$

1. Lamellar zichligi quydagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$P_L = \frac{n_T}{m_{lr}(B_{sh} + 1)} = \frac{2429}{4 \cdot (104.5 + 1.5)} = 5.72 \quad \text{lam/sm}$$

Bunda: m_{lr} -lamel rekaları soni; $B_{sh} = B_{tig} + (1 \div 2)$

2. Lamel asbobining hisobi natijasida quydagi shart bajarilishi kerak, ya'ni:

$$P_l \leq [P_l] = 5.72 < [10 \div 12]$$

Bunda: $[P_l]$ - ruxsat etilgan lamel zichligi. Uning miqdori ma'lumotnomadan ipning yo'g'onligiga qarab tanlanadi.

Gula va lamellarning ruxsat etiladigan zichliklari haqidagi ma'lumotlar - jadvalda keltirilgan.

Gula va lamellarning ruxsat etilgan zichliklari.

2 -jadval

Tanda iplarining chiziqli zichligi, teks	R _g - gula/sm	P _l -lamel/sm
10 gacha	12 ÷ 14	14 ÷ 15
11 ÷ 25	10 ÷ 12	12 ÷ 14
25 ÷ 50	8 ÷ 10	10 ÷ 12
50 dan yuqori	4 ÷ 6	5gacha

1.4. Xom to'qima iplarining og'irligi hisobi

1. 100 metr to'qimaning fon iplari og'irligi quydagicha aniqlanadi:

$$M_f = \frac{n_f \cdot T_f \left(1 - \frac{ch}{100}\right)}{10^6 \left(1 - \frac{a_t}{100}\right)} \cdot 100 = \frac{2353 \cdot 20 \left(1 - \frac{1}{100}\right)}{10^6 \left(1 - \frac{3.5}{100}\right)} \cdot 100 = 4.827 \quad \text{kg.}$$

Bunda: T_f-fondagi tanda ipining chiziqli zichligi, teks; ch- tanda ipining ohorlashdagi cho'zilishi, %.

Tanda iplarining ohorlash jarayonidagi cho'zilishining foizi ipning tolaviy tarkibiga qarab tanlanadi. Ip-gazlama sanoatida bu miqdor sh= 0,7 ÷ 1,5 % ga teng qilib belgilanadi.

a_t -tanda iplarining to'quvchilik jarayonidagi qisqarishi, %.

2. 100 m to'qimadagi milk iplarining og'irligi quydagicha aniqlanadi:

$$M_f = \frac{n_m \cdot T_m \left(1 - \frac{ch}{100}\right)}{10^6 \left(1 - \frac{a_t}{100}\right)} \cdot 100 = \frac{70 \cdot 18.2 \cdot \left(1 - \frac{1}{100}\right)}{10^6 \left(1 - \frac{3.5}{100}\right)} \cdot 100 = 0.261 \quad \text{kg.}$$

Bunda: n_m-milk iplarining soni; T_m-milk iplarining chiziqli zichligi.

3. 100 m to'qimadagi arqoq iplarining og'irligi quydagicha aniqlanadi:

$$M_a = \frac{P_a \cdot 10 \cdot L_a \cdot T_a}{10^6} \cdot 100 = \frac{400 \cdot 10 \cdot 107.5 \cdot 20}{10^6} \cdot 100 = 8.6 \quad \text{kg.}$$

4. Qoldiq ohorlanish miqdori hisobga olinganda tanda iplarining og'irligi quydagicha hisoblanadi:

$$M_T = (M_f + M_m) \cdot \left(1 + \frac{O_q}{100}\right) = (4.827 + 0.261) \cdot \left(1 + \frac{2.6}{100}\right) = 5.2 \quad \text{kg}$$

5. 1 metr xom to'qimaning chiziqli zichligi, gr/m yoki kg/m:

$$M = \frac{M_T + M_a}{100} = \frac{5.2 + 8.6}{100} = 0.1382$$

6. To'qimaning sirt zichligi, gr/m² yoki kg/m²

$$M = \frac{M_T + M_a}{B_x} = \frac{5.22 + 8.6}{96.9} = 0.142$$

Bunda: V_x – xom to'qima eni, m.

To'qimaning tanda va arqoq iplari bilan yuzasining to'ldirilish foizi.

1. To'qimaning tanda iplari bilan yuzasining to'ldirilish foizi.

$$E_T = P_T \cdot d_T \cdot 100 = 2.5 \cdot 0.17 \cdot 100 = 44 \quad \%$$

Bunda: R_t - tanda iplarining zichligi; d_t –tanda iplarining diametri, mm.

2. To'qimaning arqoq iplari bilan yuzasini to'ldirilish foizi:

$$E_a = P_a \cdot d_a \cdot 100 = 4 \cdot 0.176 \cdot 100 = 70.4 \quad \%$$

Bunda: R_t -arqoq iplarining zichligi; d_a -arqoq iplarining diametri, mm.

2. To'qimaning umumiy yuzasi bo'yicha to'ldirilish foizi:

$$E_{toq} = E_T + E_a - \frac{E_T \cdot E_a}{100} = 44 + 70.4 - \frac{44 \cdot 70.4}{100} = 83.42 \quad \%$$

1.5. To'qimani ishlab chiqarish uchun texnologik jarayonlarni tanlash va asoslash.

Har bir to'qima uchun unga xos texnologik jarayon quydagilarni hisobga olgan holda tanlanishi kerak:

- Loyixada qabul qilingan to'qima tavsifi;
- Xomashyo tavsifi;
- To'quv korxonasiga keltiriladigan xomashyo o'ramasi, uning tuzilishi va o'lchamlari;
- To'quv dastgohining turi ayniqsa, undagi arqoq tashlash usuli;
- Tanda va arqoq iplariga qo'shimcha ishlovlar berish.


Loyihada qabul qilingan texnologik jarayon zanjiri quydagi talablarga javob berishi lozim:

- Dunyo to'quvchilik texnologiyasi yutuqlarini hisobga olgan xolda ishlab chiqarishda yuqori mehnat va uskuna unumdorligini ta'minlash;
- Halqaro bozorda xaridorgir mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash bilan birga, loyixada qabul qilingan texnologik jarayonlarda kam mehnat sarf qilishni ta'minlash zarur;
- Ishlab chiqarishda iloji boricha chiqindilar miqdori kam bo'lishi, uskunalarni boshqarish esa qulay bo'lishi kerak.

Umuman ishlab chiqariladigan to'qima sifatini yaxshilash, to'quvchilikda uzuqlar sonini kamaytirish maqsadida qaysi yigiruv mashinadan ip kelishidan qa'tiy nazar, ularni qayta o'rash tavsiya etiladi. Xorijiy texnologiya tajribalariga ko'ra, qayta o'ralgan babinadagi iplarni qo'shimcha namlash tavsiya etiladi.

Quyida to'qimani ishlab chiqarish uchun texnologik jarayon keltirilgan.

**GAZLAMANI ISHLAB CHIQRISH UCHUN TEXNOLOGIK
JARAYONLAR KETMA-KETLIGI**



2-rasm. To'qima ishlab chiqarish jarayonlarining texnologik zanjiri.

Omborga keltirilgan iplar, jami ko'rsatkichlari bo'yicha standart asosida nazorat qilinib, qayta o'rash jarayoniga o'tkaziladi. Bu jarayonda iplarning uzilgan joylari bog'lanib har xil chiqindilardan tozalanib, uzunligi bo'yicha chiziqli zichligi to'g'rilanib ma'lum nisbiy zichlikda konussimon bobinaga o'raladi. Natijada ipning uzunligi ortib, sifati ko'tariladi, kelgusi jarayonda uskuna unumdorligi ortadi. Qayta o'ralgan bobinalar tandalash mashinasida tandalash g'altaklariga o'ralib, ohorlash jarayoniga o'tkaziladi. Bu jarayonda iplarni oxorlab quritib keyingi jarayonlardagi ishqalanishlarga chidamliligini ortiriladi va to'quv g'altagiga o'raladi. Shundan so'ng o'rama shoda terish yoki tugunlash jarayonlaridan o'tkazilib, to'quv dastgohiga o'tkaziladi. Arqoq ipi esa konussimon bobinaga qayta o'ralgandan so'ng to'quv dastgohiga keltiriladi. Dastgohda tanda va arqoq iplarining o'zaro o'rilishi natijasida to'qima hosil bo'ladi. Olingan to'qima maxsus mashinalarda saralanib, navlarga ajratilib o'lchanadi va sirtidagi tuklar tozalanadi so'ngra pardoqlash jarayoniga o'tkaziladi.

1.6. Texnologik jarayonlar uchun uskunalarni tanlash va asoslash.

To'quvchilikda texnologik jarayonlar loyixasini tayyorlashdagi bosh vazifa jihozlar va ularning texnologik ko'rsatkichlarni to'g'ri tanlashdir.

Bunda qabul qilinadigan jihozlar yuqori unumdorlikka ega bo'lishi, oliy sifatli mahsulot chiqarish, yirik o'ramalardan foydalanish hamda mehnat havfsizligi ta'minlanishi talab etiladi.

Jihozlarni tanlayotganda loyihada qabul qilingan to'qimaning xususiyatlari, tuzilishi, o'ramalar turi va korxona quvvati e'tiborga olinishi kerak. Jihozning texnikaviy va texnologik tavsifi uning xususiyatlari, texnik- iqtisodiy ko'rsatkichlaridagi afzalliklari nazarda tutiladi.

Qayta o'rash texnologik jarayoni uchun uskunalarni tanlash va asoslash.

Qayta o'rash jarayonida paxta tolasidan olingan iplarni qayta o'rashda Yaponiyaning "Murata" qayta o'rash avtomatidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Qabul qilingan avtomatda uzilgan ip uchlarini tugunsiz usulda bog'lash asboblarning o'rnatilishi va elektron ip nazoratchilari bilan jihozlanishi olinadigan mahsulot sifati ancha yaxshi bo'lishini ta'minlaydi. Har bir qayta o'rash galovkasi maxsus (individual) ip bog'lovchi, qayta taxtlovchi moslamaga ega, bu esa avtomat foydali ish koeffitsientini oshiradi. Ikki tomonida qayta o'rash galovkalari joylashgani ish joyidan unumli foydalanishga olib keladi. Har bir galovka o'zini avtonom qismi va mexanizmlari borki, bu mexanizmlar tuftak almashtirish, ipni uzilishini oldini olish vazifasini bajaradi. Galovkani almashtirish ham juda osonlashtirilgan, galovka ikkita o'qda uyachaga joylashtirilgan. Avtomat chiqindi kameraga ega, bu esa chiqindini aniq hisoblashga imkon beradi.

“Murata” qayta o'rash avtomatiga texnik tavsif.

3 -jadval

№	Ko'rsatkichlar	Qiymatlar
1.	Qayta o'rash barabanchalar soni	10
2.	Qayta o'rashda ipning yo'g'onligi, teks	5-120
3.	Qayta o'rashda ipning chiziqli tezligi m/min	400-1400
4.	Bobinalar shakli	Konussimon
5.	Olinayotgan bobina o'lchami, mm katta diametri, D kengligi, H	150, 200, 250, 300 150
6.	O'ram zichligi gr/sm ³	0.36-0.44
7.	Mashina o'lchamlari, mm uzunligi kenligi	4742 1050

Tandalash texnologik jarayoni uchun uskunalarni tanlash va asoslash.

Tanda iplarini tandalashda Shvetsariyada ishlab chiqarilgan piltalab tandalash “Beninger” mashinasini olish yaxshi samara beradi. Bu mashina markaziy boshqaruv pulti orqali boshqarilib omillarini, ya’ni pilta eni, uzunligi, tarangligi, o’ralgan piltalar soni va hokazolar, tugmachalar yordamida kiritiladi. Kiritilgan ko’rsatkichlar displeyda xohlagan vaqtda ko’rsatilib, uni nazorat qilib turish va zarur bo’lsa, o’zgartirib turish imkoniyati beradi.

“Beninger” guruhlab tandalash mashinasiga texnik tavsif.

4 -jadval

№	Ko’rsatkichlar	Qiymatlar
1.	Mashinaning ishchi eni	1200-2200
2.	Tandalash tezligi, m/min	1200 sekin
3.	Tandalash g’altagi o’lchami, mm Gardish oralig’i Gardish diametri O’zak diametri	1200-2200 1000 300
4.	Elektr yuritkich quvvati, kvv.	18.5
5.	Gabarit o’lchami, mm: - kengligi; - uzunligi; - balandligi	1775 1710 2325
8.	Rom sig’imi	704
9.	Mashina massasi	6,2

Oxorlash texnologik jarayoni uchun uskunalarni tanlash va asoslash.

Oxorlash bo'limiga, avvalo ohor tayyorlovchi uskuna qabul qilish kerak. Bu erda Rossiyada ishlab chiqarilgan avtomati ohor pishitkichni qabul qilamiz. Ohorlash mashinalaridan "Ben-prokom" barabanli mashinasini qabul qilamiz. Bu mashina dastur yordamida monitor orqali boshqariladi. Mashinada asosiy parametrlar: siquvchi vall, bosim kuchi, tanda ipining namligi va tarangligi, uzunlik va boshqalar kompyuter orqali nazorat qilinib, boshqariladi.

"Ben-prokom" barabanli ohorlash mashinasiga texnik tavsif.

5-jadval

№	Ko'rsatkichlar	Qiymatlar
1.	To'quv g'altagi gardishi diametri, mm	1250
2.	To'quv g'altagi gardishlari oralig'i, mm	1400-2800
3.	Ipning chiziqli tezligi, m/min	160
4.	Gabarit o'lchami, mm: - uzunligi - balandligi	 28630 3200

**Tanda iplarini o'tkazish va bog'lash jarayonlari uchun uskunalarni tanlash
va asoslash.**

Tanda iplari "PSM-230" mexanizatsiyalashtirilgan dastgohda o'tkaziladi. Tanda iplari lamel, gula va tig' tishlaridan o'tkaziladi. Bu dastgohda ikkita ishchi ma'lum tartibda iplarni jihozlardan biri uzatib, ikkinchisi o'tkazadi.

"PSM-230" ip o'tkazish dastgohiga texnik tavsif.

6-jadval

№	Ko'rsatkichlar	Qiymatlar
1.	Taxtlash eni, sm	140, 175, 230, 250
2.	Tig' raqami	25-160
3.	Passet konstruksiyasi	mexanizatsiyalashtirilgan
4.	Maksimal shodalar soni	12
5.	Maksimal lamel qatori	6
6.	Plankalarning minutiga ko'tarilish soni	11-12
7.	Gabarit o'lchami,mm: - uzunligi - kengligi - balandligi	1600 2170, 2520, 3020, 3220 1780
8.	Og'irligi, kg	315, 330, 350, 360
9.	Elektr yuritkich quvvati, kvv	0,27

Iplarni jihozlardan o'tkazilmaydigan hollarda, tugayotgan iplarning oxirgi uchlari bilan yangi olib kelingan tanda iplarining uchi bog'lanadi. Bog'lash jarayonida tugagan tanda iplari uchini yangi tanda iplariga bog'lash maxsus bog'lash mashinalari yordamida bajariladi. Bog'lash mashinalari qo'zg'almas va universal bo'ladi. Ipni ajratib olish usuliga qarab, mashinalar ignali, naxli va aralash bo'ladi. Bog'lash mashinalarining rusumidagi sonlar 190, mashinaning maksimal ishchi enini sm da bildiradi. UP1-5 mashinalari ignali ajratish mexanizmi bilan jihozlangan. UP2-5 nax ajratuvchisi. Bog'lash tezligi ipni chiziqli zichligi, tola turi va iplarning zichligiga qarab 500-600 tugun/min ga etadi. Ignali ajratish usuli paxta xom ipi uchun, nax yordamida ajratish ipak va jun hamda rangli iplar uchun qo'llaniladi.

“PSM-230” ip o'tkazish dastgohiga texnik tavsif.

7-jadval

№	Ko'rsatkichlar	Qiymatlar
1.	Mashinaning ishchi eni, mm	1250, 1800, 2000, 2500
2.	Ipni maksimal ulash tezligi, minutiga	500
3.	Ulanayotgan ip teks	2,2-100
4.	Elektr yuritkich sarfi, kVt/soat	60
5.	Maksimal lamel qatori	6
6.	Gabarit o'lchami,mm: - uzunligi - kengligi - balandligi	1650, 2310, 2700, 3060 580 2610

To'quv dastgohini tanlash va asoslash.

To'quv dastgohini tanlashda ularning assortiment va texnologik imkoniyatlarni hisobga olish zarur. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda "STB2-220" to'quv dastgohini tanlab olindi. Bu dastgoh yuqori unumdorlikka ega bo'lib, mokisiz dastgohlar ichida "STB2-220" to'quv dastgohi quydagi afzalliklarga ega:

- o'zining sodda konstruksiyasiga qaramay, bu dastgohda paxta, tabiiy ipak, kimyoviy va kanop iplaridan to'qimalar ishlab chiqarish mumkin;
- bir nech rangli arqoq iplarini tashlash imkoniyatiga ega.

Mikromokili STB2-220 to'quv dastgohiga texnik tavsif.


8-jadval

№	Ko'rsatkichlar	Qiymatlar
1.	Ishchi eni	108,5x2
2.	Bosh valning aylanishlar soni min ⁻¹	210
3.	Ip tashlagichlar soni, maks.	13
4.	To'qima valigi diametri	100
5.	To'qima o'rami diametri	560
6.	To'quv g'altagi o'lchami, mm: - gardish diametri - o'zak diametri - gardishlar oralig'i	600, 800 150 1240
7.	Shodalar soni	10
8.	Gabarit o'lchami, mm - uzunligi - kengligi - balandligi	4000 1875 1400
9.	Elektr yuritkich quvvati, kv	1,7
10.	Og'irligi, kg	2800

1.7. O'ramalar hisobi

To'quv g'altagining hisobi

1. To'quv g'altagining o'lchamlari.



3-rasm. To'quv g'altagi chimasi.

Bunda: H-gardishning oralig'i, 124 sm; D_g – gardish diametri, 60 sm; D_o – o'ram diametri, 58 sm; d_o – o'zak diametri, 15sm;

2. O'ramdagi ip hajmi

$$V = \pi H (D_o^2 - d_o^2) / 4 = 3,14 \cdot 124 (58^2 - 15^2) / 4 = 305550,25 \text{ sm}^3$$

3. G'altakdagi ohorlangan iplarning og'irligi

$$G = V \cdot \gamma / 1000 = 305550,25 \cdot 0,50 / 1000 = 152,7 \text{ kg}$$

Bunda: γ - o'ram tig'izligi, (0.48 ÷ 0.58) g/sm³; V – o'ram hajmi.

4. To'quv g'altagidagi yumshoq / ohorlangan / iplarning og'irligi

$$G = G / (1 + \frac{O_x}{100}) = \frac{152,7}{(1 + \frac{4}{100})} = 146,8, \text{ kg}$$

Bunda O_x – haqiqiy ohor miqdori %. $O_x = (2 \div 5\%)$

5. To'quv g'altagidagi iplarning maksimal uzunligi.

$$L_n^{\max} = G \cdot 10^6 / n_t \cdot T_t (1 - \frac{ch}{100}) = 146,8 \cdot 10^6 / 2429 \cdot 20 \left(1 - \frac{1,5}{100} \right) = 3067,83, \text{ m.}$$

Bunda: ch – tanda iplarining ohorlashdagi cho'zilishi % ch =1.5; T_t – tanda iplarining chiziqli zichligi; n_t – tanda iplarining soni.

To'qimani to'qish jarayonida dastgohda to'qilgan to'qima o'ramini ma'lum uzunlikda kesib olinadi. Shu dastgohda kesib olingan to'qima bo'lagi tanda iplarning uzunligiga muvofiqlashgan bo'lishi kerak. Ya'ni, tanda iplarning

uzunligi, dastgohda kesib olingan to'qima bo'lagi, uzunligiga mos kelishi va butun bo'laklar bo'lishi shart, aks holda, chiqindi ko'payadi.

6. To'qima bo'lagiga sarflanadigan tanda ipining uzunligi.

$$l_{\text{tan}} = l_{t.b.} \cdot \left(1 + \frac{a_t}{100}\right) = 50 \cdot \left(1 + \frac{10}{100}\right) = 55, m$$

Bunda: l_{tan} - to'qima bo'lagiga to'g'ri keladigan tanda iplarining uzunligi (ohorlashdan keyingi tanda iplarining uzunligi); $l_{t.b.}$ - tanlab olingan to'qima bo'lakchasi, har xil to'qimalar uchun, har xil uzunlikda bo'ladi; a_t - tanda ipining to'qishda qisqarishi.

7. Bitta to'quv g'altagidan olinadigan to'qima bo'lagi soni (kam tomoniga yaxlitlanadi):

$$K_b = \frac{L^{\max}}{n \cdot l_{\text{tan}}} = \frac{3067,83}{2 \cdot 55} = 27,8 \approx 27$$

Bunda: n – bo'laklar soni.

8. G'altakdagi tanda iplarining muvofiq uzunligini hisoblash:

$$L_n^m = K_b \cdot n \cdot l_{\text{tan}} + l_{i.o't} + l_t = 27 \cdot 2 \cdot 55 + 1 + 2,5 = 2973,5 m$$

Bunda: $l_{i.o't}$ - ip o'tkazish bo'limida xosil bo'ladigan chiqindi uzunligi (0,6-1m); l_t - to'quv dastgohida hosil bo'ladigan chiqindi uzunligi, (1,5 - 2,5 m).

Tanda iplarining muvofiq uzunligi maksimal uzunligidan kam yoki teng bo'lishi kerak. Bu uzunlik quyidagicha tekshiriladi:

$$L_n^m \leq L_n^{\max} = 2973,5 < 3067,83.$$

9. To'quv g'altagidagi yumshoq tanda iplarining haqiqiy og'irligi,


$$G_m = (L_n^m \cdot n_t \cdot T_T) / 10^6 = 2973,5 \cdot 2429 \cdot 20 / 10^6 = 144,45 \quad .$$

10. Tanda iplarining muvofiq og'irligi maksimal og'irligidan kam yoki teng bo'lishi kerak, ya'ni

$$G_m \leq G = 144,45 < 146,8.$$

Tandalash g'altagining hisobi

1. Tandalash g'altagining o'lchamlari.



4-rasm. Tanda g'altagi chizmasi.

Bunda: H – gardishlar oralig'I, 124 sm; D_g – gardish diametri, 100 sm; D_o – o'ram diametri, 98 sm; d_o – o'zak diametri, 30 sm;

2. Ip hajmi

$$V = \pi H (D_o^2 - d_o^2) / 4 = 3,14 \cdot 124 (98^2 - 30^2) / 4 = 847247,3, \text{sm}^3$$

3. Tanda g'altagidagi ipning maksimal og'irligi, kg:

$$G_{tg'}^{\max} = (V \cdot \gamma) / 1000 = (847247,3 \cdot 0,5) / 1000 = 423,6, \text{kg}$$

Bunda: γ - o'ram tig'izligi, (0,48 dan 0,58 гача) g/sm³; V – o'ram hajmi.

4. Tanda ipining maksimal uzunligi, m.

$$L_{t,g'}^{\max} = (G_m^{\max} \cdot 10^6) / (m_p^l \cdot T_t) = 423,6 \cdot 10^6 / 607,25 \cdot 20 = 34878,5, \text{m}$$

Bunda: m_p^l - tandalash g'altagidagi iplar soni.

5. Guruhdagi tandalash g'altaklari soni:

$$K_{g'} = n_t / m_p = 2429 / 616 = 3,94 \approx 4$$

Bunda: n_t - tanda iplarning soni; m_p – romning sig'ishi; $K_{g'}$ – g'altaklar soni, ko'p tomonga butunlashtiriladi va $K_{g'}^l$ bilan belgilanadi. Masalan: $K_{g'} = 3,9$ ni $K_{g'}^l = 4$ deb olamiz.

6. Tandalash g'altagidagi iplarning soni:

$$m_p^l = n_t / K_{g'}^l = 2429 / 4 = 607,25$$

7. Guruhdagi tandalash g'altaklaridan olinadigan to'quv g'altaklarining soni:

$$K_n = L_{tg'}^{\max} / L_n^m = 34878,5 / 2973,5 = 11,72,$$

$$K_n = K_n^l.$$

Bunda: $L_{tg'}^{\max}$ - tandalash g'altagidagi ipning maksimal uzunligi; L_n^m - to'quv g'altagidagi ipning muvofiq uzunligi; K_n^l - to'quv g'altagining soni kam tomonga yaxlitlanadi.

8. Tandalash g'altagidagi ipning muvofiq uzunligi, m:

$$L_{tg'}^m = L_n^m \cdot K_n^l + \ell_{oh} = 2973,5 \cdot 11 + 3,75 = 32712,25$$

$$l_{oh} = l_1 + l_2(K_{g'}^l - 1/K_{g'}^l) = 10 + 5(4 - 3/4) = 3,75, m$$

Bunda: l_1 ohorlanib chiqindiga chiqadigan ipning uzunligi. l_1 – qabul qilingan ohorlash mashinasiga bog'liq bo'lib, $(10 \div 45 \text{ m})$ bo'ladi; l_2 – $(5 \div 10) \text{ m}$ stoykadan ohor tog'orasigacha; l – tandalash g'altaklarida ohorlashdan so'ng chiqindi bo'lib qoladigan o'rtacha uzunlik $(3 \div 10) \text{ m}$

$$L_{tg'}^m \leq L_{tg'}^{\max} = 32712,2 < 34878,5.$$

9. Tandalash g'altagidagi ipning muvofiq og'irligi, kg:

$$G_{tg'}^m = L_{tg'}^m \cdot m_p^l \cdot T_T / 10^6 = 32712,25 \cdot 607,25 \cdot 20 / 10^6 = 397,2,$$

$$G_{tg'}^m \leq G_{tg'}^{\max} = 397,2 < 423,6.$$

Bobinani hisoblash

1. Bobina hajmini hisoblash:

$$\begin{aligned} V &= \pi / 12 \{ 2 \cdot h(D^2 + Dd + d^2) + 3HD^2 - 3(2h + H)d^2 = \\ &= 3,14 / 12 \{ 2 \cdot 0,5(23^2 + 23 \cdot 5,5 + 5,5^2) + 3 \cdot 9 \cdot 23^2 - 3 \cdot (2 \cdot 0,5 + 9)5,5^2 = 3679,3, sm^3. \end{aligned}$$

2. Bobinadagi ipning og'irligi, kg yoki, g:

$$\text{Tanda } G_b = \gamma \cdot V = 0,48 \cdot 3679,3 = 1766,06 gr$$

$$\text{Arqoq } G_b = \gamma \cdot V = 0,43 \cdot 3679,3 = 1582,09 gr$$

$$\text{Bunda: } \gamma - \text{bobinadagi o'ramning tig'izligi, g/sm}^3.$$

3. Bobinadagi ipning maksimal uzunligi, m:

$$\text{Tanda } L_b^{\max} = G_b \cdot 1000 / T_t = 1766,06 \cdot 1000 / 20 = 88303.$$

$$\text{Arqoq } L_b^{\max} = G_b \cdot 1000 / T_t = 1582,09 \cdot 1000 / 20 = 79104,5.$$

$$\text{Bunda: } T - \text{bobinadagi ipning chiziqli zichligi, teks.}$$

4. Bitta bobinadan olinadigan tanda g'altaklarining soni:

$$K_{bg'} = L_b^{\max} / L_{tg'}^m = 88303 / 32712,25 = 2,69 \approx 2.$$

Bunda: $L_{tg'}^m$ - tandalash g'altagidagi iplarning muvofiq uzunligi; $K_{bg'}$ - kam tomoniga butunlashtiriladi.

5. Bobinadagi ipning muvofiq uzunligi, m:

$$L_b^m = L_{tg'}^m \cdot K_{bg'} + (200 \div 400) = 32712,25 \cdot 2 + 300 = 65724,5m.$$

Bunda: $(200 \div 400 \text{ m})$ – bobinada qoladigan uzunlik.

6. Bobina ipining muvofiq og'irligi, g:

$$G_b^m = L_b^m \cdot T_T / 1000 = 65724,5 \cdot 20 / 1000 = 1314,49,$$

$$G_b^m \leq G_b = 1314,49 < 1766,06.$$

Arqoq iplarini hisoblashda muvofiq uzunlik hisoblanmaydi, faqat $G_b = \gamma \cdot V$ va $L_b^{\max} = G_b \cdot 1000 / T_T$ formulalar hisoblanadi.

Tuftakka o'ralgan har xil yo'g'onlikdagi iplar uchun o'ram zichligi quyidagi jadvalda keltirilgan.

9-jadval

Har xil yo'g'onlikdagi iplar uchun tuftakdagi o'ram zichligi

Ip yo'g'onligi	γ , g/sm ³	Ipning yo'g'onligi	γ , g/sm ³
Tanda ipi uchun		Arqoq ipi uchun	
5-8-8,4	0,47-0,46	200-18,5	0,43-0,423
10-21	0,48-0,47	15,5-11,4	0,45-0,43
25-81	0,49-0,48		

O'ramlar hisobi bajarilgandan so'ng o'ramadagi ipning maksimal og'irligi va uzunligini muvofiq og'irlik hamda uzunlikka taqqoslash maqsadida quyidagi jadvalga ularni quyidagicha yozish mumkin.

O'ramalar hisobini yakunlovchi jadval.

№	O'ramalar turi	Hajmi, sm ³	O'ramaning nisbiy zichligi, g/sm ³	Maksimal og'irlik, kg	Maksimal uzunlik, m	Muvofiq og'irlik, kg	Muvofiq uzunlik, m
1.	To'quv g'altagi	305550.2	0.50	146.8	3067.8	144.45	2973.5
2.	Tandalash g'altagi	847247.3	0.50	423.6	34878.5	397.2	32712.2
3.	Tanda ipi bobinasi	3679.3	0.48	1.766	88303	1.314	65724.5
4.	Arqoq ipi o'ramasi	3679.3	0.43	1.582	79104.5		

1.8. Chiqindilar hisobi

Chiqindilar to'quvchilik jarayonlarida yo'qotilgan, uzilgan iplarni ulash va taxtlash uchun sarflanadigan qoldiq iplar yig'indisidir. Chiqindining kamayishi mahsulot tannarxining kamayishiga, bir metr to'qimaga sarflanadigan xomashyo tejalishiga olib keladi. Chiqindining kam chiqishi to'quv sexiga keltirilayotgan xomashyo sifatiga bog'liq. Bundan tashqari, chiqindi miqdori o'rama uzunligi, uskuna holatiga, o'rnatiladigan parametrlarga rioya etilishiga, ishchilar malakasiga bog'liq.

1. Qayta o'rashdagi chiqindilar hisobi.

$$Ch_q = [(l_1 + l_2 + l_3) / L_T + (l_1 / l_2)] \cdot 100 =$$

$$= [(0,2 + 0,5 + 1) / 65724,5 + (0,2 / 0,5)] \cdot 100 = 0,02586 \%$$

Bunda: L_T - tuftakdagi ipning uzunligi; l_1 - iplarni bog'lashda chiqadigan chiqindi (0,2-0,5 m); l_2 - tuftak tutgichga tuftakni joylashtirib, yangi tuftak uchini topishda chiqadigan chiqindi (0,5-2 m); l_3 - tuftak almashtirishda eskisi oxiriga qolayotgan chiqindi ip uzunligi (1-3 m). U_s -uzunlikka to'g'ri keluvchi uzilish soni
 $U_s = 2 \div 6$

2. Tandalash bo'limidagi chiqindilar hisobi.

$$Ch_{ta} = (l_1 \cdot U_s + l_2 + l_3 + l_4) \cdot 100 / L_b^m = (0,7 \cdot 0,164 + 1 + 2 + 10) \cdot 100 / 65724,5 = 0,019\%$$

Bunda: l_1 - iplarni ulashda uchlarini kesishdan chiqqan chiqindi (0,5-1,5); U_s - bobina ipining uzunligiga to'g'ri keladigan uzilishlar soni; l_2 - bobinani almashtirishda chiqadigan chiqindi (1-2 m) har bir bobina uchun; l_3 - idishda(patronda) qoladigan uzunlik (2-5 m); l_4 - rom uzunligi va romdan tandalash g'altagigacha bo'lgan uzunlik (10-15 m).

$$U_s = U_s^1 \cdot L_b^m / 10^6 = 2,5 \cdot 65724,5 / 10^6 = 0,164$$

U_s^1 - tandalashda 1 mln.metr yakka ipga to'g'ri keladigan uzilishlar soni.

$$U_s^1 = 2,5$$

3. Ohorlash bo'limidagi chiqindilar hisobi.

$$\begin{aligned} Ch_{oh} &= \left[(l_1 + l_2 + l_3 \left(\frac{K_{g'} - 1}{K_{g'}} \right) / L_{tg'}^m) + (K_{hg'} \cdot U_c \cdot l_4 / 10^6) \right] \cdot 100 = \\ &= \left[\left(10 + 5 + 3 \left(\frac{4-1}{4} \right) / 32712,25 \right) + (0,2 \cdot 2,5 \cdot 5 / 10^6) \right] \cdot 100 = 0,04\%. \end{aligned}$$

Bunda: U_s - tandalashda 1 mln, metr yakka ip uzunligiga to'g'ri keladigan uzilishlar soni; l_4 - halqa o'ramlarni yo'qotishda sarf bo'ladigan ipning o'rtacha uzunligi (5-10 m); l_1 - ohorlangan iplar uchidagi qoladigan chiqindi (10-45 m); l_2 - (5-10 m); l_3 - tandalash g'altaklarida qoladigan xom iplar uchidan kesiladigan uzunlik(3÷10 m); $K_{g'}$ - guruhdagi g'altaklar soni; $K_{hg'}$ - g'altakdagi halqa o'ramlari sonini hisobga oluvchi koeffisient $K_{hg'} = 0,2$; $L_{tg'}^m$ - tandalash g'altagidagi ipning muvofiq uzunligi.

3. Ip o'tkazishdagi chiqindilar hisobi.

$$Ch_{i.o'} = (l_{i.o'} \cdot K_{i.o'} / L_n^m) \cdot 100 = (0,6 \cdot 0,1 / 2973,5) \cdot 100 = 0,002[\%]$$

Bunda: $l_{i.o'}$ - ip o'tkazish vaqtida sarf bo'ladigan chiqindi (0,6-1) m; $K_{i.o'}$ - tanda iplarini qanchalik o'tkazishni hisobga oluvchi koeffitsiyent (0,1-0,5); L_n^m - to'quv g'altagidagi ipni muvofiq uzunligi.

4. Siljiydigan ip bog'lovchi mashinadan chiqadigan chiqindi hisobi.

$$Ch_{bog'} = (2l_1 + l_2)K_{ib} \cdot 100 / L_n^m = (2 \cdot 0,4 + 0,8) \cdot 0,9 \cdot 100 / 2973,5 = 0,048, [\%].$$

Bunda: l_1 - tugayotgan va taxtlanayotgan tanda iplarining siljiydigan mashinada kesib olinadigan qismi (0,4 m); l_2 - bog'langan iplar shoda gulasining tig'dan o'tkazib, kesib olinadigan qismi (0,8-1,5 m); $K_{ib} = (1 - K_{i.o'}) = (1 - 0,1) = 0,9$; $K_{ib} = (0,85 - 0,90)$.

Ip o'tkazish va bog'lashdagi umumiy chiqindi, %

$$Ch_{ip} = Ch_{i.o'} + Ch_{bog'} = 0,002 + 0,048 = 0,05.$$

To'quvchilikda chiqadigan chiqindilar hisobi.

5. Tanda ipining chiqindisini hisobi.

$$Ch_t = \frac{l_1 + l_2}{L_n^m - l_t} \cdot 100 = \frac{1 + 0,5}{2973,5 - 1,5} \cdot 100 = 0,050\%.$$

Bunda: l_1, l_2, l_t - to'quv g'altagi xisobi bo'limidan olinadi.

6. Arqoq ipning chiqindisi hisobi.

$$Ch_a = \frac{l_1 + l_2 + l_3 \cdot k + l_4}{L_b^{mak}} \cdot 100 = \frac{2 + 4 + 1 \cdot 0,03 + 0,08}{79104,5} \cdot 100 = 0,0077 [\%].$$

Bunda l_1 - arqoq o'ramasini joylashtirishda sarflanadigan ip uchi (1,6 ÷ 3 m); l_2 - arqoq o'ramasidagi ehtiyoj uchun uzunlik (2 ÷ 6 m); l_3 - arqoq uchini ulashda sarflanadigan ip (0,5 ÷ 1,5 m); l_4 - to'quv dastgohida sodir bo'ladigan nuqsonlarni yo'qotishda sarf bo'ladigan chiqindi uzunligi (0,08 m); k-bitta arqoq o'ramasiga to'g'ri keladigan uzuklar soni.

Ishlab chiqarishdagi chiqindilarning yakuniy jadvali

№	Jarayonlar	Tanda chiqindisi %, Ch_T	Arqoq chiqindisi %, Ch_A
1.	Qayta o'rash.	0.025	
2.	Tandalash.	0.019	
3.	Ohorlash.	0.04	
4.	Ip o'tkazish	0.002	
	Ip bog'lash	0.04	
5.	To'quvchilik	0.050	0.007
	Jami:	0.176	0.007

**100 metr to'qima to'qish uchun sarflanadigan tanda va arqoq iplarning
og'irligi (chiqindi bilan birga)**

